



## XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI Q A R O R I

100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: [sirdaryo@exat.uz](mailto:sirdaryo@exat.uz)

2022 - yil 20 - iyun

VI-35-65-9-0-K/22

Sirdaryo viloyati hokimligi

### **Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga saylov o‘tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi kotibi haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4004-sonli qarorining 4,2-bandiga, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 16-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-noyabrdagi PQ-4004-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-noyabrdagi PQ-4004-sonli qaroriga muvofiq kotibning ish haqi razryadi 12-razryad etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Viloyat hokimining birinich o‘rinbosari A.Karimov, viloyat Moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i F.Kushakovlarga:

Kotiblikning ish samaradorligini oshirish, kadrlar qo‘nimsizligini va korrupsiya holatlarini oldini olish hamda uni moddiy rag‘batlantirib borish maqsadida unga viloyat hokimligi mas’ul xodimlariga ko‘zda tutilgan ko‘p yillik ish xizmatlari uchun to‘lanadigan qo‘shimcha ish haqlari, mukofot va moddiy yordamlar;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2021-yil 15-

fevraldagi 107/1-sonli xatiga asosan kotibni, 2022-yil iyul oyidan boshlab viloyat mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan oylik ish haqi maoshiga qo‘shimcha 100 (yuz) foiz ustama to‘lovi to‘lash yo‘li orqali moddiy qo‘llab-quvvatlab borilsin.

4. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi (F.Kushakov)ga:

viloyat hokimligining asoslantirilgan so‘roviga asosan har chorak yakuni bilan bir choraklik miqdorda (oldingi chorakda iqtisod qilingan mablag‘ni hisobga olgan holda) viloyat mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan viloyat hokimining farmoyishiga muvofiq mablag‘ ajratilishini ta‘minlasin.

5. Viloyat hokimligi Ishlar boshqarmasi (T.Sayfullayev), viloyat Moliya bosh boshqarmasi (F.Kushakov), Davlat moliyaviy nazorati viloyat boshqarmasi (D.Bozorov)ga ajratilgan mablag‘larning samarali va maqsadli ishlatish vazifasi topshirilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Karimovga, nazorat qilish Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi U.Sotiboldiyev zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Sirdaryo  
viloyati Kengashi raisi**



**G'.Mirzayev**